



## Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup> 2025- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **9 208,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,1 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 724,4** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi 7 484,5 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 111,2 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan (**6 945,5** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 449,2** ming so'mga yoki **11,1 %** ga o'sib, **8 394,7** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 000,5** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **54,3 %** ini, jumladan, **26,1 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2024- yil yanvar-may oylari hajmi va 2025- yil yanvar- may oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## **II. Xizmatlar sohasini tuman(shahar)lar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining tuman(shahar)lar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2025- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Navoiy vil.<sup>2</sup></b>	<b>9 208,9</b>	<b>100,0</b>	<b>113,1</b>
Navoiy sh.	2 581,7	28,0	113,0
Zarafshon sh	638,0	6,9	110,9
G'ozg'on sh	38,6	0,4	108,6
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	1 215,7	13,2	109,7
Konimex	174,6	1,9	115,5
Qiziltepa	602,8	6,5	114,7
Navbahor	387,5	4,2	113,5
Nurota	290,1	3,2	115,8
Tomdi	75,6	0,8	115,0
Uchquduq	219,9	2,4	111,8
Xatirchi	471,5	5,1	114,2

### **Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuman\(shahar\)lar kesimidagi hajmi](#)

Navoiy shahrining yuqori ulushi (**28,0 %**) uning shahar(markaz) maqomi bilan izohlanadi, u viloyatning eng yirik shahridir. Navoiy shahrida davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Navoiy shahri rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-sون qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

<sup>2</sup> Tuman(shahar)lar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o'sishida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **32,8 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining o'sishiga hissasi **1,2** bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari **8,5 %** ga (o'sishiga hissasi **1,9** band), transport xizmatlari **13,2 %** ga (o'sishiga hissasi **2,3** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **16,0 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,6** band) va shaxsiy xizmatlari **10,3 %** ga (o'sishiga hissasi **0,3** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may)**

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 484,5</b>	<b>9 208,9</b>	<b>113,1</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	252,1	319,2	116,0
moliyaviy xizmatlar	1 321,8	1 621,3	119,5
transport xizmatlari	1 160,5	1 412,0	113,2
<i>shu jumladan: avtovoz xizmatlari</i>	<i>922,4</i>	<i>1 091,4</i>	<i>111,6</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 959,0	2 412,8	108,4
savdo xizmatlari	1 471,9	1 690,0	108,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	112,6	194,3	160,2
ta'lim sohasidagi xizmatlari	219,7	276,5	103,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari	103,4	123,7	110,9
ijara xizmatlari	68,3	88,1	118,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari	112,9	135,1	110,2
shaxsiy xizmatlari	166,8	211,0	110,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari	251,7	363,9	132,8
boshqa xizmatlari	283,8	361,0	108,8


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,2 %**, savdo xizmatlari **18,4 %**, moliyaviy xizmatlari **17,6 %**, transport xizmatlari **15,3 %**, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari **4,0 %**, boshqa xizmatlari esa **3,9 %** ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,2 %**, savdo xizmatlari **19,7 %**, moliyaviy xizmatlari **17,7 %**, transport xizmatlari **15,5 %**, boshqa xizmatlari esa **3,8 %** ulushini tashkil etgan.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiylari turlari bo'yicha tarkibi  
2025- yil yanvar-may, %**




2025- yilning yanvar-may oylarida **ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar xizmatlarida** o'sish kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **81,7** mlrd so'mga yoki **60,2** foizga o'sishi kuzatilgan.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdag'i xizmatlarning me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,0** ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **32,8** foizga o'sgan.

**Telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi**





2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport sohasida avto transporti xizmatlari (138,4 %), omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (135,1 %), pochta va kuryerlik (112,5 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. avto transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, qatnovlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizesiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Viloyatda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyoohlар oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **119,4 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuva ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuva ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batapsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)